Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.



“Toshkent” RFBda Top 10 brokerlar

2024 - yilning 9 oy yakunlari bo'yicha "Toshkent" RFBga a'zo bo'lgan akkreditatsiyalangan investisiya vositachilari (brokerlari) soni 49 tani tashkil etdi. Ular orasidan quyidagi brokerlar bitimlar soni va savdo hajmi bo'yicha top 10 talikka kirishdi.



Qimmatli qog'ozlarni sotib olishda vositachilik qilgan brokerlik tashkilotlari orasida bitimlar soni bo'yicha eng ko'p bitimlar “Kapital-Depozit” MChJ orqali amalga oshirilib, 148 010 ta bitimni tashkil etdi. Savdolarning eng katta hajmi "Alp omad invest" MChJ ishtirokidagi 2,00 trln. so'mlik qimmatli qog'ozlarni xarid qilish bo'yicha qayd etildi. Bitimlar hajmi bo'yicha top 10 talikdagi keyingi o'rinlarni tegishli ravishda 97,50 mlrd. va 67,48 mlrd. so'm bitimlar bilan “Orient Securities Market” MChJ va “Mulk Sarmoya Brokerlik Uyi” MChJ egalladi.




Eng ko'p bitimlar “Kapital-Depozit” MChJ brokeri orqali aksiya va obligatsiyalarni sotish bo'yicha tuzilgan bo'lib, 142 431 donani tashkil etgan. Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha top o'ntalikdan keyingi o'rinlarni mos ravishda 87 435 va 55 341 ta bitim bilan “Alkes Research” MChJ va “Portfolio Investments” MChJ egalladi. Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha bitimlar hajmi bo'yicha eng yirik bitim “Alp Omad Invest” MChJ orqali amalga oshirildi va 2,01 trln. so'mni tashkil etdi.

Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.



Birja kotirovkalash varag'idagi aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi



2024 - yilning 9 oyi bo'yicha aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi o'sish tendentsiyasini ko'rsatdi va shu davr boshidagi ko'rsatkichga nisbatan 36,96 foizga o'sishni qayd etdi.

Ushbu davrda bozor kapitallashuvining maksimal darajasi – 247,52 trln. so'm 2024- yil 5- sentyabrda qayd etilgan. Bozor kapitallashuvining eng past qiymati 25-yanvarga to'g'ri keldi, o'shanda emitentlarning umumiy kapitallashuvi 159,47 trln. so'mni tashkil qilgan.

Shuningdek, 19- mart kuni emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi sezilarli darajada oshib, 164,66 trln. so'mdan 245,49 trln. so'mga yetdi. Bunday o'sishga "SOLUTIONS LAB" AJning 200,00 mln qo'shimcha /SOLA/ aksiyalarining chiqarilishi sabab bo'ldi (qo'shimcha chiqarilishdan avval aksiyalar soni 50,00 mln dona edi). Bundan so'ng "SOLUTIONS LAB" AJning bozor kapitallashuvi 19,85 trln. so'mdan 99,25 trln. so'mgacha oshdi, bu o'z navbatida umumiy bozor kapitallashuvi hajmiga ta'sir ko'rsatdi.


30.09.2024- yil holatiga ko'ra birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan aksiyalarning umumiy bozor kapitallashuv 234,83 trln. so'mni tashkil etdi. Davr oxirida aksiya emitentlari soni 103 donaga yetdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan emitentlar soni 5 taga kamayganiga qaramay, umumiy bozor kapitallashuvi 90,81 trillion so'mga (61,33%) oshgan.

Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.



Top 10 likvidli qimmatli qog'ozlarning bozor narxlari o'zgarishi

2024 - yil 9 oyidagi eng likvidli qimmatli qog'ozlar** narxidagi o'zgarishlar*



* Hisobot oyidagi birinchi bitimning ochilish narxlari va oxirgi bitimning yopilish narxlari taqqoslangan

**Bitimlar soni bo'yicha top 10ta qimmatli qog'ozlar eng likvidli qimmatli qog'ozlar sifatida qabul qilingan (14-bet)

2024- yilning 9 oyi davomida eng ko'p sotilgan top 10 ta qimmatli qog'ozlar narxlari quyidagicha o'zgardi: Davr oxirida narxlarning eng sezilarli o'sishini "Bank" sohasidagi ikkita emitentning aksiyalari ko'rsatdi va 2024- yil boshiga nisbatan "Ipak Yo'li" ATIBning /IPKY/ aksiyalari narxi sezilarli **▲127,27%** ga oshdi. "IPOTEKA-BANK" ATIBning /IPTB/ aksiyalarining narxi o'sish darajasi **▲53,40%** ni tashkil etdi.

Hisobot davrida "O'zsanoatqurilishbank" AKBning /SQBN/ aksiyalari narxining biroz pasayishi kuzatilindi - **▼1,96%**. Grafikda aks ettirilgan qolgan beshta aksiyalarning narxlari **▼6,10%** dan **▼36,49%** gacha pasaydi.

Ta'kidlash joizki "Hamkorbank" ATB oddiy /HMKB/ va imtiyozli /HMKBP/ aksiyalarining 1:1 qo'shimcha chiqarilishi munosabati bilan 1/2 nisbatda aksiyadorlar ixtiyorida bo'lgan aksiyalar soni va turiga nisbatan 15 - fevral kuni aksiyalar narxiga o'zgartirishlar kiritildi. (oddiy aksiyalar $61,00/2=30,50$ so'm; imtiyozli aksiyalar $58,79/2=29,40$ so'm). Shuningdek, 2024 -yil 15- fevral holatiga ko'ra tuzatilgan kotirovka narxini 2024 -yilning sentyabr oyi yakunidagi yopilish narxlari bilan solishtirganda emitentning oddiy /HMKB/ va imtiyozli /HMKBP/ aksiyalari **▼22,77%** va **▼31,78%** ga pasayishni qayd etgan.


Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.



Birja indeksining tahlili – UCI

2024 – yilning 9 oyi yakunida UCI indeksi 709,84 dan 677,96 gacha tushib, 57,38 punktga pasayishni ko'rsatdi. Maksimal qiymat 3 yanvar kuni qayd etilgan bo'lib, 709,84 ballga yetgan. Eng past indeks qiymati iyul oyida 643,92 punktini qayd etdi.

2024 -yilning 9 oyi uchun UCI indeksidagi o'zgarishlar grafigi



2024 -yilning I -choragida UCI indeksi bir necha muhim tebranishlarga duch keldi. Ulardan birinchisi 9 -yanvar kuni sodir bo'ldi: "Farg'ona yog'-moy" AJ, "Kattaqo'rg'on yog'-moy" AJning imtiyozli aksiyalari va "Universal Bank" ATBning oddiy aksiyalari narxi pasayib, 18 000 so'm (-43,75%), 18 000 so'm (-35,71%) va 9 130,00 so'mni (-32,73%) tashkil etdi, bu esa UCI indeksining 709,84 dan 679,03 punktga pasayishiga olib keldi. Shuningdek, 8 fevral kuni 9 ta emitentning aksiyalari listing talablariga rioya qilinmaganligi sababli birja kotirovkalash varag'idan chiqarilgandan so'ng, fond bozorining umumiy bozor kapitallashuvi 1,62 foizga kamaydi, bu esa indeksning 672,78 dan 661,84 punktga pasayishiga olib keldi. Biroq keyingi kunlarda "Ohangaronshifer" AK, "OKTOBANK" AJ va "O'ZBEKKIMYOMASH ZAVODI" AJning oddiy aksiyalari narxlari o'sib 120 000,00 so'm (2 300,00%), 7 990,00 so'm (33,21%) va 4 321,00 so'mni (23,46%) tashkil qildi, va bu mos ravishda bozor kapitallashuvining 3,42% ga o'sishiga olib kelib, indeksning 661,84 dan 684,51 punktga keskin o'sishiga sabab bo'ldi.

Mart va aprel oylari sezilarli tebranishlar davri bo'ldi: fevral oyi oxirida indeksda ijobiy dinamika kuzatilgandan keyin, "Andijonyog'moy" AJning imtiyozli aksiyalari (-39,39 foiz, 20 000,00 so'mgacha), "Buxoroneftgazparmalash" AJning imtiyozli aksiyalari (-20,00 foiz, 8 000,00 so'mgacha) va "OKTOBANK" AJning (-19,99%, 7 200,00 so'mgacha) oddiy

Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.



aksiyalari narxida salbiy tendensiyalar kuzatilganligi sababli mart oyining boshidan boshlab to'rt savdo kuni davomida ketma-ket indeks ko'satkichi pasayib, 665,30 dan 654,54 birlikgacha tushdi. Biroq, 28- mart kuni indeksning 665,12 darajasiga tiklanishi qayd etildi, bu esa "SOLUTIONS LAB" AJ 200,00 million dona miqdoridagi oddiy aksiyalarining qo'shimcha chiqarilishi hisobiga bozor kapitallashuvining **51,40%** foizga o'sishi hisobiga qayd etildi.

Aprel oyida UCI indeksida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi: u dastlab 644,29 birligiga tushdi, oy oxiriga kelib esa 670,85 gacha tiklandi. 2024 -yil aprel oyining birinchi yarmida UCI indeksi quyidagi sabablarga ko'ra 644,29 ga tushdi:

3- aprel kuni "KAFOLAT sug'urta kompaniyasi" AJning oddiy va imtiyozli aksiyalari birja kotirovkalash varag'idan chiqarildi, bu esa bozor kapitallashuvining 8,19 trln. so'mga pasayishiga olib keldi. Indeksning pasayishiga ta'sir ko'rsatuvchi ikkinchi omil - "Buxoroneftgazparmalash" AJning oddiy va imtiyozli aksiyalari hamda "O'ztransgaz" AJning imtiyozli aksiyalari mos ravishda 1 899,00 so'm (**-37,24%**), 2 240,00 so'm (**-35,90%**) 6 086,00 so'mga (**-22,55%**) arzonlashganidir. 17- apreldan 30- aprelgacha "UNIPOLIS" AJning va "O'rta Osiyo trans" AJning oddiy aksiyalari birja kotirovkalash varag'idan chiqarilishiga qaramay, UCI indeksi **26,56** punktga o'sdi, biroq bozor kapitallashuvini 1,20 trln. so'mga kamaydi. Indeksning oshishiga "Turonbank" ATB va "Ipak yo'li" ATBning oddiy aksiyalari, shuningdek "Farg'onaazot" AJning imtiyozli aksiyalari narxining 709,00 so'mga (**61,60%**), 82,00 so'm (**51,90%**) va 7 392,00 so'm (**44,00%**) oshishi hisobiga sodir bo'ldi.

Keyingi oylarda UCI indeksi yilning birinchi yarmidagi ikkinchi eng yuqori ko'rsatkich bo'lgan 705,46 qiymatiga yetdi. Bu o'sish "Ipak yo'li" AITB va "Namangan dori-darmon" AJning oddiy aksiyalari hamda "Bekobodsement" AJning imtiyozli aksiyalari narxlarining sezilarli darajada oshishi hisobiga ta'minlandi. Shunday qilib, may oyi boshidan 3- iyungacha, "Ipak yo'li" AITB aksiyalari qiymati 214,89 so'mga (**101,79%**), "Namangan doridarmon" AJ aksiyalari 8 623,00 so'mga (**107,29%**), "Bekobodsement" AJning imtiyozli aksiyalari 1 842,97 so'mga (**148,83%**) qimmatlashdi. 3- iyundan keyin indeks **52,84** punktga tushib ketdi va 11- iyunda 652,62 punktni tashkil etdi. Ushbu pasayishning sababi "Quvasoytsement" AJ, "Ipak yo'li" AITB va "Buxoroneftgazparmalash" AJning aksiyalari narxining -21 993,53



so'm (-22,75%), - 283,45 so'm (-66,54%) va -1 688,00 so'mga (-28,19%) arzonlashgani bo'ldi.

Keyingi oyda, 19-iyulda, indeks 643,92 ni tashkil etdi, bu oxirgi 9 oydagi eng past ko'rsatkichdir. Bu pasayishning asosiy sababi "Ipak yo'li" AITB va "O'ztransgaz" AJning oddiy aksiyalari narxining 68,00 so'mga (-24,91%) va 4 631,00 (-18,52%) so'mga pasayishi natijasida bozor kapitallashuvining pasayishi, shuningdek, "Kogon yog' - ekstraksiya zavodi" AJning 50,86 mln. aksiyalari birja kotirovkalash varag'idan chiqarilishi bo'ldi.

Ko'rinib turibdiki, davr oxirigacha indeks nisbatan barqaror tebranishlarni ko'rsatdi va hisobot davri oxirida 652,46 punktga (yil boshiga nisbatan 57,38 punktga kam) qiymatni qayd etdi.

2 -avgust kuni indeks uchinchi chorakdagi eng yuqori darajaga ko'tarilib, 672,64 punktga yetdi. Bu o'sish bozor kapitallashuvining 11,27 trillion so'mga o'sishi hisobiga, asosiy o'sish omili esa "O'ztransgaz" AJning oddiy aksiyalar narxining 10 223,00 so'mga (43,99%) oshgani bo'ldi.

Biroq 14- avgust kuni bozor kapitallashuvining 7,82 trln. so'mga kamayishi tufayli indeks yana 645,35 punktga pasaydi. Ushbu pasayishga sabab "O'ztransgaz" AKning oddiy aksiyalari narxining 11 460,00 so'mga (-34,25%) pasayishi sabab bo'ldi. Binobarin, davr oxirigacha indeks nisbatan barqaror tebranishlarni ko'rsatdi va hisobot davri oxirida 652,46 birlikni (yil boshiga nisbatan 57,38 punktga kam) qiymatni qayd etdi.

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI

2024 YIL 9 OY BO'YICHA




LTSMda savdolar tahlili


O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023- yil 28-yanvardagi 07-45-01/03-sonli buyrug'i asosida 2023- yil 30 -yanvardan "Toshkent" Respublika fond birjasining birja kotirovkalari varag'iga kiritilmagan qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdolari boshlandi, "Toshkent" RFBning listingga kiritilmagan qimmatli qog'ozlarning listingdan tashqari savdo maydoni (LTSM) ishga tushirildi.

2024- yilning 9 oyi yakuniga ko'ra "Toshkent" RFBning listingdan tashqari savdo maydonida jami 1,18 trln. so'mlik 38 150 ta bitim tuzildi. Bitimlar obyektlari 142 ta emitentning 1,53 mlrd. dona qimmatli qog'ozlari bo'ldi.

Bitimlar soni, dona



Bitimlar hajmi, mlrd so'm



Kunlik hisobda eng ko'p bitimlar 4- yanvar kuni amalga oshirilgan – 575 dona; eng kichigi – 25- sentyabr kuni qayd etilgan – 4 dona. Bitimlarning eng katta hajmi 15- avgust kuni qayd etilgan bo'lib, kun davomida 777,62 mlrd. so'mdan ortiq bitimlar amalga oshirilgan.

9 oy davomida o'rtacha kunlik savdolar soni 206 ta bitimni tashkil etdi; o'rtacha kunlik bitimlar hajmi 6,38 mlrd. so'mni tashkil etdi. "SME Stock" aksiyalar bozorining "Main Board" listingdan tashqari savdo maydoni bo'yicha o'rtacha kunlik bitimlar hajmi 533,56 mln. so'mni tashkil etdi.

Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.



Joriy davrda “SME Stock” fond bozorining “Nego Board” platformasida umumiy qiymati 72,99 mlrd.soʻmlik 16 ta bitim tuzildi. Shuningdek, fond bozorining “FoP Board” savdo maydonida 997,60 mlrd.soʻmlik 4 ta bitim tuzildi. 2024-yilning 9 oyi davomida LTSMda umumiy qiymati 1,00 million soʻmlik bitta PO (public offering) bitimi qayd etildi.

“SME Bond” obligatsiyalar bozorining “Main Board” listingdan tashqari savdo maydonida umumiy qiymati 10,19 mlrd. soʻmlik 16 ta bitim tuzildi.

Bozor va savdo maydonlari tahlili

“SME Stock” aksiyalar bozorining listingdan tashqari savdo platformasining G1- “Main Board” savdo maydonida 132 ta emitentning aksiyalari bilan 98,71 mlrd. soʻmlik 38 113 ta bitimlar qayd etildi.

Bozor	Savdo maydoni	Emitentlar soni	Bitimlar soni, dona	Qimmatli qogʻozlar soni	Bitimlar hajmi, soʻm
SME Stock	Main Board	132	38 113	482 145 062	98 709 350 963,90
	Nego Board	8	16	48 556 247	72 989 901 503,88
	FoP Board	3	4	997 603 232	997 603 232 000,00
SME Bond	Main Board	3	16	648	10 194 383 562,40
SME ST PO	PO	1	1	1 430	1 001 000,00
Jami		142	38 150	1 528 306 619	1 179 497 869 030,18


“SME Stock” aksiyalar bozorining G1- “Main Board” savdo maydonida bitimlarning eng katta hajmi “PLUM TECHNOLOGIES” AJning /OPTG/ 69,12 mlrd. soʻmlik 69,12 mln. dona oddiy aksiyalari bilan tuzilgan. Nominal qiymati savdo narxiga teng boʻlib 1,00 ming soʻmni tashkil qildi.

T1 - “Nego Board” savdo maydonida eng katta hajmi “ANOR BANK “ AJning /A056930/ 30,08 mln. Dona qimmatli qogʻozlari bilan tuzilgan 30,08 mlrd.soʻmga yoki LTSM umumiy hajmining 2,55% ga toʻgʻri keldi. Har bir aksiya savdo narxi 1 000, 00 ga teng boʻldi.


Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.



Aksiyalar bozorining Main Board platformasi bo'yicha bitimlar soni, dona



Aksiyalar bozorining Main Board platformasi bo'yicha bitimlar hajmi, mlrd so'm



“FoP Board” maydoni

2024- yilning 9 oyi favomida “SME Stock” aksiyalar bozorining “FoP Board” savdo maydonida 997,60 mlrd.so'mlik bitimlar tuzildi, bu umumiy bitimlar hajmining 29,62 foizini tashkil etadi.


9 - aprel kuni “UZUM BANK” AJning /A057210/ qimmatli qog'ozlari bilan 200,00 mlrd.so'mlik 1 ta bitim tuzildi, bu LTSM bitimlari umumiy hajmining 20,05 foizini tashkil etadi.

Bitim davomida 200,00 mln. dona oddiy aksiyalar sotildi va aksiyalarning savdo bahosi nominal qiymatiga teng bo'lib, bir dona uchun 1 000,00 so'mni tashkil etdi.

Joriy yilning 15- avgust kuni “FoP Board” savdo seksiyasida “NBU INVEST GROUP” AJning /A056870/ 777,60 mln. dona oddiy aksiyalari bilan 777,60 mlrd.so'mlik 1 dona bitim tuzildi, bu LTSM bitimlari umumiy hajmining 77,95 foizini tashkil etadi. Aktsiyalarning savdo narxi nominal qiymatiga teng bo'lib, bir dona uchun 1,00 ming so'mni tashkil etdi.

“SME Stock” fond bozorida “FoP Board” bo'limida bitimlarning eng kichik hajmi “MY-INSURANCE” AJning /A057330/ 20,00 mln.dona aksiyalari bilan tuzildi. Umumiy qiymati 20,00 mlrd.so'mlik aksiyalarning savdo qiymati 1,00 ming so'mni tashkil etdi.

FoP Board maydonining umumiy bitimlar hajmidagi ulushi, %



Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.



PO - aksiyalarni ommaviy joylashtirish

2024- yilning 4- aprel sanasida YaDTM brokerlik tizimida “SME ST PO” platformasida “Piskent paxta tozalash” AJning /A022750/aksiyalarini ommaviy joylashtirish amaliyoti bo'lib o'tdi.

Bitim davomida “Piskent paxta tozalash” AJning 1 430 dona /A022750/ oddiy aksiyalari 1,00 mln. so'mga savdosi amalga oshirildi. Nominal qiymati 374,00 so'm bo'lgan bitta aksiyaning savdo narxi 700,00 so'mga teng bo'ldi.

Obligatsiyalar bozori “SME Bond”

2024- yilning III choragi yakuniga ko'ra, listingdan tashqari “SME Bond” obligatsiyalar bozorining “Main Board” asosiy savdo platformasida “IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti” AJning /A056967/, “SAIPRO GROUP” MChJning /SAGR/ va “UZREPORT” MChJning /A056997/ obligatsiyalari bilan 16 ta umumiy hajmi 10,19 mlrd.so'mlik bitimlar qayd qilindi. Obligatsiyalarning savdo narxi mos ravishda 52,23mln., 1,00 mln. va 50,79 mln. so'mni tashkil etdi.

Sentyabr ohirida “Toshkent” RFBning listingdan tashqari savdo maydonida 29 ta emitentning 36 ta qarz qimmatli qog'ozlari mavjud.

No	Emitent	Instrument kod	Emissiya sanasi/ So'ndirilish sanasi	Kupon stavkasi, %	1 ta obligatsiyaning nominal qiymati, so'm	Emissiya qilingan obligatsiyalar soni
1	<AKFA MEDLINE> MChJ	UZ6057077AA8	26.04.2021/ 10.05.2026	6	10 000 000,00	21 100
2	<BESHARIQ ISHONCH SAVDO> MChJ	UZ6057627AA0	30.06.2022/ 03.07.2025	22	1 000 000,00	10 000
3	<DELTA MIKROMOLIYA TASHKILOTI> MChJ	UZ6058027AA2	15.12.2023/ 12.12.2024	36	10 000 000,00	1 500
4	<Farg'ona Ishonch Savdo> MChJ	UZ6057637AA9	16.08.2022/ 21.08.2025	22	1 000 000,00	5 000
5	<FAROVON HAYOT IFODASI> MChJ	UZ6057567AA8	19.04.2022/ 01.04.2025	24	1 000 000,00	2 000
		UZ6057567AB6	13.06.2022/ 13.06.2025	22	1 000 000,00	10 000
6	<HAMKOR INVEST LIZING> MChJ	UZ6057757AA5	11.11.2022/ 10.11.2025	17	1 000 000,00	4 500
7	<HAMKORMAZLIZING> MChJ	UZ6057767AA4	11.11.2022/ 10.11.2025	17	1 000 000,00	4 500
		UZ6057767AB2	25.04.2023/ 20.04.2026	18	1 000 000,00	8 500
8	<IFODA AGRO KIMYO HIMOYA> MChJ	UZ6057617AA1	04.07.2022/ 24.06.2027	8	1 000 000,00	110 000
9	<IMKON FINANS MIKROMOLIYA TASHKILOTI> MChJ	UZ6056967AB9	28.07.2022/ 24.07.2025	28	1 000 000,00	3 000
10	<ISHONCH KREDIT SAVDO> MChJ	UZ6057667AA6	17.08.2022/ 23.08.2025	22	1 000 000,00	10 000

Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.



11	<KIDS WORLD OF GOODS> MChJ	UZ6057787AA2	12.12.2022/ 11.12.2025	22	1 000 000,00	3 000
12	<MIKRO LEASING> MChJ	UZ6057957AA1	28.09.2023/ 08.10.2024	20	10 000 000,00	500
13	<NATURAL JUICE> MChJ	UZ6057777AA3	12.12.2022/ 10.12.2027	15	1 000 000,00	15 000
14	<SAIPRO GROUP> MChJ	UZ6058037AA1	19.12.2023/ 17.12.2028	24	50 000 000,00	1 000
15	<STAR CITY SENTER> MChJ	UZ6057737AA7	04.10.2022/ 29.09.2025	22	1 000 000,00	5 000
16	<TRUST IMPORTANT TRADE> MChJ	UZ6057897AA9	16.06.2023/ 15.06.2026	22	1 000 000,00	5 000
17	<TRUST TRADE ASIA> MChJ	UZ6057727AA8	19.09.2022/ 14.09.2025	22	1 000 000,00	5 000
18	<Trust Trade Partner> MChJ	UZ6057647AA8	16.08.2022/ 21.08.2025	22	1 000 000,00	5 000
19	<TRUST VALLEY TRADE> MChJ	UZ6057837AA5	04.05.2023/ 23.04.2026	22	1 000 000,00	7 000
20	<TURIST BIZNES TRADE> MChJ	UZ6057717AA9	15.09.2022/ 14.09.2025	22	1 000 000,00	5 000
21	<UZREPORT> MChJ	UZ6056997AA8	03.12.2020/ 13.12.2025	22	50 000 000,00	600
22	<VARIANT RETAIL FINANCE> MChJ	UZ6057657AA7	17.08.2022/ 21.08.2025	20	1 000 000,00	20 000
		UZ6057657AB5	22.05.2023/ 16.05.2026	20	1 000 000,00	20 000
		UZ6057657AC3	23.06.2023/ 21.06.2026	20	1 000 000,00	30 000
		UZ6057657AD1	29.04.2024/ 29.04.2027	20	1 000 000,00	30 000
23	<CHINARA BIZNES KREDIT LOMBARD> MChJ	UZ6058377AA1	30.05.2024/ 16.06.2027	24	1 000 000,00	2 300
24	<WITH US FOREVER> MChJ	UZ6058457AA1	19.06.2024/ 19.06.2027	22	1 000 000,00	12 000
25	<PERFECT NETWORK> MChJ	UZ6058467AA0	24.06.2024/ 19.06.2024	22	1 000 000,00	20 000
26	<HAMROH MIKROMOLIYA TASHKILOTI> MChJ	UZ6058537AA0	03.07.2024/ 16.06.2027	26	1 000 000,00	30 000
27	<EVOLUTION NETWORKS> MChJ	UZ6058727AA7	22.08.2024/ 22.08.2027	22	1 000 000,00	25 000
28	<PROSPEROUS LARGE FUTURE> MChJ	UZ6058737AA6	22.08.2024/ 22.08.2027	22	1 000 000,00	13 000
29	<OLTIN YULDUZ PLUS MIKROMOLIYA TASHKILOT> MChJ	UZ6058767AA3	16.09.2024/ 31.08.2028	26	1 000 000,00	20 000

Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.




Main Board bo'yicha top 10 aksiya

2024 - yil III choragida "SME Stock" listingdan tashqari aksiyalar bozorining G1- "Main Board" savdo bo'limida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha top 10 aksiyalar.



9 oy yakunlari bo'yicha eng ko'p bitimlar "Uzsanoateksport" AJning 7 713 dona /A056290/ aksiyalari bilan tuzilgan. Keyingi o'rinlarni 2 170 va 2 099 tas bitimlar bilan mos ravishda "UZPARTA'MINOT" AJ /UZPT/ va "Universal Sug'urta" AJlar /A055380/ egalladi. Yuqori o'ntalikni "KAFOLAT" AJning /OKFSP/ imtiyozli va "MULK-SARMOYA BU»" AJning /A015030/imtiyozli aksiyalari 1 247 va 1 151 ta bitim bilan yakunladilar.

Топ 10 акций по объему сделок, млн сум



Bitimlarning eng yirik hajmi "PLUM TECHNOLOGIES" AJning 69,12 mlrd. so'mlik /OPTG/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan. Undan keying o'rinlarda "Uz-SaeMyung Ko" AJning /A054910/ va "TMZ" AJning /A043950/ aksiyalari egallab, ular bilan mos ravishda 6,33 mlrd. so'm va 6,00 mlrd. so'mlik bitimlar tuzilgan.

Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.



Hududlar bo'yicha savdolar hajmi

Eng katta hajm va eng ko'p bitimlar Toshkent shahrida joylashgan 65 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bilan qayd etilgan. Ushbu hududdagi emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan barcha 25 272 ta bitimning umumiy summasi 1,13 trln. so'mni tashkil etib, listingdan tashqari savdo maydonlari umumiy hajmining 95,73% ga teng bo'ldi.

Bitimlar hajmi bo'yicha keying o'rinni Andijon viloyati emitentlarining qimmatli qog'ozlari egalladi. Mazkur viloyat aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari savdosi hajmi 31,53 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ular orasida eng yirik savdolar "UZ-DONGVON COMPANY" AJning /UDVC/ aksiyalari bilan bo'lib o'tdi. Ushbu emitentning 130,80 ming dona oddiy aksiyalaridan 23,39 mlrd. so'mlik bitim tuzildi.

Bitimlar soni bo'yicha Buxoro viloyatida joylashgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari ikkinchi o'rinni egallagan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha jami 2 882 ta bitimlar tuzilib, ularning umumiy hajmi 347,00 mln. so'mni tashkil etdi.

Hududlar	Bitimlar soni, dona	Qimmatli qog'ozlar soni, dona	Bitimlar hajmi, so'm
Andijon viloyati	323	1 985 380	31 526 579 042,69
Buxoro viloyati	2 882	182 997	347 002 413,87
Toshkent shahri	25 272	1 511 021 137	1 129 178 486 609,03
Jizzax viloyati	613	9 731	20 883 150,92
Qashqadaryo viloyati	1 434	14 514 928	7 204 027 484,83
Navoiy viloyati	3	600	75 000,00
Namangan viloyati	699	10 079	40 752 031,43
Qoraqalpog'iston Respublikasi	134	148 767	7 223 283 169,01
Samarqand viloyati	403	46 653	908 879 069,49
Surxandaryo viloyati	83	160 699	100 865 447,63
Sirdaryo viloyati	959	16 680	60 556 457,23
Toshkent viloyati	422	9 984	2 309 907 381,60
Farg'ona viloyati	2 432	141 551	381 606 882,16
Xorazm viloyati	2 491	57 433	194 964 890,29
Jami	38 150	1 528 306 619	1 179 497 869 030,18

Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.



DISKLEYMER

Ushbu tahlilda keltirilgan ma'lumotlar "Toshkent" Respublika fond birjasi AJ ning (keyingi o'rinlarda "Toshkent" RFB) mutaxassisleri tomonidan tayyorlangan. Ushbu tahliliy material faqat ma'lumot uchun mo'ljallangan bo'lib "Toshkent" RFB va uning xodimlarining hech qaysi biri ushbu sharhdan yoki undagi ma'lumotlardan foydalanish natijasida kelib chiqqan bevosita yoki bilvosita yo'qotishlar (zararlar) uchun javobgar emas.

"Toshkent" RFB investorlarga muayyan investitsiyalar va strategiyalarni maqsadga muvofiqligini mustaqil baholashni maslahat berib hamda investorlarni litsenziyalangan investitsiya vositachilari xizmatlaridan foydalanishga undaydi.

Ushbu sharh bo'yicha barcha huquqlar "Toshkent" RFBga tegishli. Ushbu tahliliy materialni qisman yoki to'liq ko'paytirish va/yoki tarqatish manbani ko'rsatmasdan amalga oshirish mumkin emas.

© "Toshkent" Respublika fond birjasi AJ

Hujjat "Tahlil va statistika" bo'limi tomonidan tayyorlandi.

Qayta aloqa uchun kontaktlar:

E-mail: analytics@uzse.uz

Tel.: +998 71 267-08-42

Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.